



## SEMANTIC FIELD OF ANIMAL NAMES IN OYBEK'S NOVEL "NAVOIY"

Lutfulla Sindorov<sup>1</sup>

Marina I. Solnyshkina<sup>2</sup>

*Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan, Kazan Federal University*

DOI: 10.5281/zenodo.15592417

Article History	Abstract
Received: 10.05.2025 Accepted: 04.06.2025	This article describes zoonyms studied by linguists and their views on them. The etymology of the words related to the names of animals in Oybek's novel "Navoiy", including fish, quail, quail, wolf, donkey, goose, snake, dog, pigeon, lizard, hawk, puppy, falcon, horse, sheep, lamb, leopard, beaver, mouse, cow, fox, tussock, camel, and their meanings were analyzed from a lexical and semantic perspective.

**Keywords:** Oybek, novel "Navoiy", word, lexeme, sema, semantic field, Uzbek language lexicon, word formation, own layer, appropriation layer, zoonyms, snake, elephant, etc.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Associate Professor of the Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan, Ph.D., Uzbekistan

<sup>2</sup> Dr.Prof., Department of Theory and Practice of Foreign Language Teaching, Kazan Federal University, Russia

# OYBEKNING “NAVOIY” ROMANIDAGI HAYVON NOMLARINI BILDIRUVCHI SEMANTIK MAYDON

## KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Oybek, “Navoiy” romani, so‘z, leksema, sema, semantik maydon o‘zbek tili leksikasi, so‘z yasash, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, zoonimlar, ilon, fil va b.

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan zoonimlar, ularga oid qarashlar bayon etilgan. Oybekning “Navoiy” romanidagi hayvon nomlariga oid leksemalar, jumladan, baliq, bedana, bo‘dana, bo‘ri, eshak, g‘oz, ilon, it, kabutar, kaltakesak, kalxat, kuchuk, lochin, ot, qo‘y, qo‘zi, qoplon, qunduz, sichqon, sigir, tulki, tustovuq, tuya kabi so‘zlarning etimologiyasi, ular anglatgan ma‘no leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan.

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarimizni tiklash va ma‘naviy merosimizni o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlar qo‘lyozma manbalarni nashr etish, tarixiy asarlarning til xususiyatlarini tadqiq qilishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, qardosh turkiy tillarning, xususan, o‘zbek tili leksikasini tarixiy manbalarda aks etgan boy faktik materiallar yordamida har tomonlama chuqur va ilmiy jihatdan tadqiq etish hozirgi kunda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan birlamchi vazifalardandir.

O‘zbek adabiyotining nodir asarlaridan hisoblangan Oybekning “Navoiy” romanida xalq xo‘jaligining turli jabhalari – ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, tabiiy, harbiy, madaniy, diniy, maishiy, kasb-hunar, jug‘rofiy sohalarga oid leksik birliklar qo‘llanilgan. Bular, o‘z navbatida, xalqimizning XV asrdagi hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odati, an‘analari haqida ma‘lumot beradi.

Tadqiqotning maqsadi Oybekning “Navoiy” romanining o‘zbek hozirgi o‘zbek adabiy tili shakllanishi va rivojlanishida tutgan o‘rnini aniqlash hamda romanda qo‘llanilgan so‘zlarning lingvostatistik, mavzuiy, tarixiy-etimologik va leksik-semantik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat

Tadqiqotning obyekti sifatida Oybekning “Navoiy” romani tanlab olingan bo‘lib, tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy, tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik, statistik usullardan foydalanilgan.

Zoonimlar<sup>3</sup> tadqiqi Mahmud Koshg‘ariydan boshlangan. «Navoiy» romanida quyidagi zoonimlarni uchratish mumkin. *Bo‘ri, bo‘dana, bedana, it, kuchuk, g‘oz, ilon, kabutar, kaltakesak, kalxat, lochin, ot, qo‘zi, qunduz, sichqon, sigir, tulki, tustovuq, tuya, eshak, qoplon, baliq, qo‘y, uloq, echki.*

Asar leksikasidagi zoonimlar genealogik jihatdan turkiy (*it, ilon, ot, tuya, tulki, eshak, qoplon, baliq, bo‘ri, qo‘y, qo‘chqor, qurt*), forscha-tojikcha (*ajdaho, fil, kabutar, pashsha*); arabcha (*tayr*) so‘zlardan iborat. Asarlar matnida jami 36 ta zoonim mavjud. Asarlar

<sup>3</sup> Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б.15–16; Базарова Д.Х. История формирования развития зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1978. – С.3; Ибрагимов К. Древнетюркские названия животных в лексике современных тюркских языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1975.

leksikasida eng ko'p qo'llangan zoonimlar turkiycha bo'lib, ularning umumiy miqdori 12 ta. Ular orasida xonakilashtirilgan uy hayvonlari *it, ot, tuya, eshak, echki, qo'y, qo'chqor* kabilar bo'lsa, qolganlari yirtqich hayvonlar va qushlarning nomlaridir.

Tuya – bir yoki ikki o'rkachli, juft tuyoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli sutemizuvchi ish hayvoni (O'TIL). Ushbu istiloh O'rxun-Enasoy yodgorliklarida *tebä // tevä*, eski o'zbek tili obidalarida *tevä* shaklida uchraydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *tuya* (O'TIL, II, 240), shevalarda *tevä* (O'TIL, II, 190) shakllari iste'moldadir. «Tuya» terminiga “Navoiy” roman matnining 8 o'rnida duch kelamiz:

Xilini, ta'mini surishtirmay, duch kelgan sharobni ko'taraveradigan va qozoqlar qimiz ichgan singari juda ko'p ichadigan To'g'onbekka ikki kosa may hech kor qilmadi; chanqoq **tuyaning labi** suvga tegdi, xolos [2.28]! Yozuvchi To'g'onbek xarakterini tuya obrazi orqali yoritib bergan.

Bozor kuni bo'lganidan ko'chalarda qatnov zo'r edi. Ot, eshak mingan dehqonlar, qo'ng'iroqlarini jaranglatib salmoqlangan qator **tuyalar**, kalava to'la savatlarini boshlariga qo'ygan kampirlar, matolarini qo'ltiqdagan to'quvchilar va hokazo qurama olomon bozor tomonga oqardi [2.41].

– *Na zarari bor? Tuya ko'rdingmi – yo'q! – boqdi To'g'onbek* [2.57]. O'zini ko'rmaganga, bilmaganga chiqarmoq ma'nosini bildiruvchi ibora tarkibida ishlatilgan.

Bir necha yuz odam terlagan, pishgan, hansiragan holda muttasil harakatda: yuk tashigan aravalaming gumburlashi, **tuyalarning** allaqanday qaysarlik va zarda bilan baqirishi, og'irkarvon fillarning haybatli lapanglashi, ishboshilarning keskin qichqirishlari Arslonqulni ancha esankiratdi [2.201]. Hamma inshootlarda shovqin-suron tindi. Yolg'iz sho'x bolalargina dam olayotgan **tuyalar**, fillar atrofida g'ivirlab, hayvonlarga tegajaklik qiladilar [2.203]. Ertasi, kuchli bosh og'rig'iga qaramay, Amir Mo'g'ul ko'chish harakatiga tushdi. Orttirgan mol-mulkini **tuyalarga** yuklab, Hirotga jo'natdi [2.297]. Bozorlarda, oilalarda, hunarmandlarning do'konlarida hamma hayajon bilan bu xabarni muzokara qiladi «Bachchataloq mast **tuyadan** qutuldik, inshoollo!» deb chollar xudoga shukur etadi [2.298]. Bulutlar katta parchalarga bo'linib, oq **tuyalardek** har yoqqa yugura ketdi [2.344].

**Ilon** – sudralib yuruvchi, oyoqsiz, tanasi ingichka va uzun, ko'zlari shaffof qovoqlar bilan qoplangan jonivor (O'TIL). **Yilan** (MK,I,232) termini ilk bor O'rxun-Enasoy yodgorliklarida keltirilgan: *altun bašliğ yilan män* (DTS,266). Zoonim “Hibat ul-haqoyiq” dostoni tilida ham ifodalangan: *Yilan yumšaq erkän yavuz fe'l tutar*. «At-tuhfa» (10a12) va «Kitob bulg'at» asarlarida **ilan** (15a5) shakli ko'zga tashlanadi. Termin eski o'zbek tili yodgorliklarida ham ifodalangan: *fusungar afsun bilä yilanni töšükdin čiqarur* (Navoiy,III,217). Radlov lug'atida taranchin, chig'atoy tillarida **ilan** (RSL,I,1445), tatar, quman, oltoy, teleut, lebedin, chulm tillarida **yilan** (RSL,III,518) fonetik shakllari qo'llanishda bo'lganligi qayd etilgan. Termin hosila ma'nosida uyg'ur yozuvidagi ko'hna manbalarida hamda «Devon»da astronomik termin sifatida turkiycha o'n ikki muchal yillaridan oltinchisi, ilon yilini anglatgan. Zoonim **yil**= «jilmoq», «sirpanmoq» fe'liga **-an** affiksini qo'shish natijasida hosil bo'lgan (RSL,III,482). XIV asr Xorazm yodgorliklarida

arabcha **su'ban**, Alisher Navoiy asarlarida fors-tojikcha **mor** (Navoiy,III,217) sinonimlari ham qo'llanishda bo'lgan: *Berür qoy kütümägä Musağa su'ban* (Mn, 292a5). Termin "Navoiy" roman matnida 11 marta turli ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanilgan: *Aksariyat shoirlarning she'r ipiga dur va gavhar deb terganlari Navoiy uchun munchoqday qiymatsiz, ilon po'stiday sovuq yaltiroqli ko'rinar edi [213]*: Ilon po'stini yozuvchi dur va gavharga o'xshatish orqali shoirlarning talab darajasida yozilmagan, qiymatsiz she'rlarini zo'r tashbehona tasvirlagan, bunday o'xshatishlarni quyidagi misollarda ham ko'rish mumkin: *Xo'ja Afzalni Navoiyning o'ng qo'li, deb hisoblar, Nizomulmulkni esa har on uni chaqmoqqa hozir turgan ilon, deb, bilardi [2.288]. Burchak-burchakda, kavak-kavakda ilonday to'lg'anib, yuraklariga yig'ilgan qora g'azabni qanday bo'shatishning evini topmagan har xil fitnachilar birdan bosh ko'targanlar [2.305]. Uning dushmanlari tarqatgan bo'htonlar, go'yo ilonday, uning yuragini chaqib oigan edi [2.318]. Bino oldidagi katta gulzorlardan ikki katta yo'l bog' ichiga kirib yo'qolar, yana har tarafga ilon izi bo'lib o'rmalagan yolg'izoyoq yo'llar ko'p edi [2.326]. Abdusamad ichini kemirgan yomonlik hislarini bo'g'ishga, yuragida jinoyatning ilon tiliday hamma vaqt likillab turgan zaharli nishtarini vaqtincha makrning qiniga tiqishga tirishdi [2.347]. Abdusamadning ichida jinoyat iloni yana gajaklanib-dikillab qoldi [2.347]. Zotan, nabirasi uchun o'ch olish fikri goho- goho ilondek chaqib, butun vujudini zaharlar edi [2.457]. – Xalq xato qilmaydi, – dedi Navoiy. – Ilonga hech kim o'z ko'ksida joy bermas [2.416]! Husayn Boyqaro ilon chaqqanday to'lg'andi, g'azablanib, o'rnidan turib ketdi va titrab qichqirdi [2.406]:*

*Navoiyning yer tagida ilon qimirlaganini sezadigan ziyrak ekaniga kundan kun chuqurroq ishondi [2.347].*

«Fil» ma'nosidagi turkiycha **yağan** (QR,63v16) termini uyg'ur yozuvidagi ko'hna manbalarda **yaña** shaklida ifodalangan: *Menizi antağ bolur yaña qoğuş teg* – Uning tashqi ko'rinishi filning terisiga o'xshash (DTS,233). Mahmud Koshg'ariy «Devon»ida **yağan** (MK,III,36), **yağan** shakllari ko'zga tashlanadi: *Yağanlar čarlašdī* – Fillar jar solishdi (MK,III,310). Ahmad Yugnakiy **yağan** variantidan foydalangan: *Yağan bolsa yüklük üzäsindä zar*. Chig'atoy tilida **yağan** (RSL,III,39), **yığan** (RSL,III,505), uyg'ur tilida **yañ** (RSL,III,58) kabi fonetik shakllari iste'molda bo'lgan. O'zga manbalarda qayd etilmaydi. **Yağan** ning mavjud barcha fonetik turlarini chog'ishtirish, uning dastlabki ko'rinishi, ya'ni **dağan** shaklini tiklash imkonini beradi. Ammo mazkur terminning aslida turkiy tillar leksik fondiga mansubligi yoki mo'g'ul tillaridan o'zlashganligi haqida muayyan fikr mavjud emas (IRLTYa,140). G.Ramstedt mo'g'ulcha **zağan**, **ziğan** va chig'atoy tilidagi **yağan** zoonimini oltoycha **yañ** «katta», «yirik, kuchli» sifatiga bog'laydi (OSLAYa,134). Turfon matnlarida «fil» ma'nosini sanskritcha **matana** termini anglatgan (DTS,338).

**Fil** (RSL,IV,1942) atamasi, dastavval, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul- haqoyiq» asarida qayd qilingan (DTS,194). XIV asr Xorazm yodnomalarida, shuningdek, Alisher Navoiy asarlari leksikasida **fil**, **pil** (Navoiy,III,314) fonetik shakllarida uchraydi: *nečä kim fil haybatli bolursa...*(G,101b2); *arlanlar, barslar, pillar yatmiš* (QR,209v8). A.Shcherbakning yozishicha, **pil** qadimgi eron tillaridan o'zlashgan; qiyoslang: so'g'dcha **pub**. Shunday bo'lsa

ham aslida uning eron tillari leksik qatlamiga mansublik ehtimoli kam. Shuning uchun uni sanskritcha **pilu** va assuriycha **piru** so'zlariga qiyoslash o'z isbotini topgan (IRLTYa,139-140).

**Fil** – Afrika va Osiyoda yashaydigan, sutemizuvchilar sinfiga mansub, sirtga chiqqan ikkita uzun, kuraktishli va baquvvat xartumli, o'simliklar bilan oziqlanuvchi ulkan jussali hayvon (O'TIL). Majididdin Hindistondan kelgan yangi **fillarni** uzoqdan bir muddat tomosha etib, qirq ustunli qasrga tomon ketdi [2.115].

Ko'chma ma'noda baquvvat, qudratli, katta imkoniyatlarga ega ma'noda keladi. Karvonlari Hindiston, Xitoy yo'llarida muttasil qatnab turuvchi bu savdogar, ishning rivoji va ko'rayotgan foydalaridan og'iz ochmadi, kamchiliklar ustida tilni bir qarich qiladigan, *pashshani filga aylantiradigan* hamma savdogarlar kabi, yolg'iz chatoqlari haqida gapirdi [2.50].

Xalq tarixi milliy qadriyatlar, madaniyat tarixi bilan uzviy bog'liqdir. O'ziga xos tarixiy taraqqiyoti, madaniy rivoji, etnografik xususiyatlariga ega bo'lgan har bir xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, madaniyati va etnik qatlamiga doir ma'lumotlar badiiy adabiyotda o'z ifodasini topadi. Zoonimlar har bir millat til boyligida mavjud bo'lib, tabiat, jamiyat haqidagi xulosalarni, inson fe'l-atvori, harakatiga xos ijobiy va salbiy vaziyatlarni namoyon etishga, ta'sirchanlikka xizmat qiladi. Zoonim va zoonim komponentli matn tahliliga bag'ishlangan jahon va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar tarixiy, leksik-semantik, funksional uslubiy xarakterga ega bo'lib, kishilik jamiyatida muhim o'rin tutadigan hayvon nomlarining semantik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Xalq tarixi milliy qadriyatlar, madaniyat tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Oybek asarlari matnini tahlil qilar ekanmiz, muayyan qismini hayvon nomlarini ifodalovchi so'zlar, ya'ni zoonimlar tashkil qilishini ko'rib chiqdik va hayvon nomi bilan bog'liq so'zlar uslubiy bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Oybek asarlari tilidagi zoonimlar boshqa ijodkorlar asarlari tilidan ancha ko'p va sermahsul ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kulsarina G. Ethno-cultural features of zoonyms in the Bashkir language (based on folklore texts). Vestnik Bashkirskogo Universiteta. – 2015. Vol. 20. №. 2. – 538-542 p.
2. Oybek. Navoiy. Roman. / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir ha'yati: Bobur Alimov va boshq. /. – T.: «Sharq», 2004, – 496 b.
3. Xolmonova Z., Tosheva D. Zoonim komponentli paremlar ning izohli lug'ati (o'zbek, ingliz va rus tili materiallari asosida). Lug'at. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. – B. 260.
4. Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 116.
5. Абдуалиева З.У. Гипонимо-эквиномические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Худжанд, 2014. – 86 с.

6. Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б.15–16.
7. Агаян А.Э. Введение в языкознание. – Ереван: Ун-т.,1960. – 271 с.
8. Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Т.: Фан, 1978. – 222 с.
9. Бафоев Б. История древних слов (на узб. яз). – Т.: Фан. 1991. – 91 с. O'zbek xalq maqollari. 1-jild. A-O. – Toshkent: Fan, 1987. – 368 b.
10. Зарипов Б. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (А.Навоий асарлари асосида): Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Т., 2002. – 215 б.
11. Исматуллаев Н. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар // ТошДПИ нинг «Илмий асарлар»и. – Т.: ТошДПИ, 1963. – Т.42; китоб I. – Б. 359.
12. Порхомовский М.В. Турецкие пословицы в языке и речи. Языки славянской культуры. – М., 2014. – 174 с.
13. Саидова Ҳ.А. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Бухоро, 1995. – 178 б.
14. Самойлович А.Н. Женские слова у алтайских турков // Язык и литература. – Л., 1929. – Т.III. – 125 с.
15. Синдоров Л.К. «Ҳибатул ҳақойиқ» лексикаси: Фил.фан.фалсафа доктори (PhD) дисс. автор. – Жиззах, 2021. – 24 б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 222 б.
17. Щербак А.М. Название домашних и диких животных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Издательство АН СССР, Институт языкознания, 1961. – 172 с.
18. Lutfulla, Sindorov. "«HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG 'AT TARKIBIDAGI PARADIGMATIK MUNOSABATLAR." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023): 475-477.
19. Kurolovich S. L., Olimovich K. T. «HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG 'AT TARKIBIDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY VA HARBIY TUSHUNCHALARNI BILDIRUVCHI SEMANTIK MAYDON //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 233-236.
20. Lutfulla S., Abbos S., A'zimjon S. THE DEVELOPMENT TENDENCIES OF LABOR RELATIONS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 378-383.
21. Lutfulla S., Abbos S., A'zimjon S. ANALYSIS OF THE CONCEPT, ESSENCE AND SCIENTIFIC TRENDS OF THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 384-388.

22. Kurolovich S. L. SEMANTICS OF WORDS USED IN THE EPIC" HIBAT UL-HAQOYIQ" ACCORDING TO THE RELATIONSHIP OF FORM AND MEANING //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 12-20.